

## ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK: ZAMONAVIY LINGVISTIK PARADIGMANING MARKAZIY YO'NALISHI

**Rayhona Arslonbekova Rahimboy qizi**

O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti,  
Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada antroposentrik tilshunoslikning shakllanish jarayoni, uning nazariy va metodologik asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy lingvistik paradigmadagi o'zni keng ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Antroposentrik yondashuv tilni inson omili bilan uzviy bog'liq murakkab kognitiv va ijtimoiy hodisa sifatida talqin etib, uni faqat lingvistik birliklar tizimi emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va kommunikativ tajribasining bevosita ifodasi sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada til va tafakkur munosabati, lisoniy ong, nutq faoliyati, diskurs hamda pragmatik omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Shuningdek, antroposentrik tilshunoslikning zamonaviy fanlar tizimidagi o'zni va istiqbollari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** antroposentrizm, kognitiv lingvistika, lisoniy ong, diskurs, pragmatika, kommunikatsiya, nutq faoliyati

**Abstract.** This article provides a comprehensive scientific analysis of the formation process of anthropocentric linguistics, its theoretical and methodological foundations, developmental stages, and its place in the modern linguistic paradigm. The anthropocentric approach interprets language as a complex cognitive and social phenomenon closely connected with the human factor, considering it not only as a system of linguistic units but also as a direct reflection of human thinking, culture, and communicative experience. The study analyzes the interrelation between language and thought, linguistic consciousness, speech activity, discourse, and pragmatic factors. It also provides a scientifically grounded discussion of the role of anthropocentric linguistics within the system of modern sciences and its future prospects.

**Keywords:** anthropocentrism, cognitive linguistics, linguistic consciousness, discourse, pragmatics, communication, speech activity

**Аннотация.** В данной статье проводится комплексный научный анализ процесса формирования антропоцентрической лингвистики, её теоретико-методологических основ, этапов развития и места в современной лингвистической парадигме. Антропоцентрический подход трактует язык как сложное когнитивное и социальное явление, тесно связанное с человеческим фактором, рассматривая его не только как систему языковых единиц, но и как непосредственное отражение мышления, культуры и коммуникативного опыта человека. В работе анализируются взаимосвязь языка и мышления, языковое сознание, речевая деятельность, дискурс и прагматические факторы. Также научно обосновывается роль антропоцентрической лингвистики в системе современных наук и её перспективы развития.

**Ключевые слова:** антропоцентризм, когнитивная лингвистика, языковое сознание, дискурс, прагматика, коммуникация, речевая деятельность, лингвистическая

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, tilni o'rganish jarayoni faqat grammatik strukturalar yoki formal qoidalar tahlili bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi lingvistika tilni inson omili bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kognitiv, psixologik va ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishga yo'naltirilgan. XX asr oxirlarida lingvistik paradigmadagi yuz bergan o'zgarishlar natijasida antroposentrik tilshunoslik shakllandi. Bu yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, til markazida tizim emas, balki inson turadi. Ya'ni til inson uchun, uning tafakkuri, madaniyati va kommunikativ ehtiyojlari asosida mavjud bo'ladi.

**Asosiy qism.** Antroposentrik tilshunoslikning shakllanishi. Antroposentrik tilshunoslik strukturalizm va formalizm yondashuvlarining cheklanganligi natijasida yuzaga kelgan yangi ilmiy paradigmadir. Strukturalizm tilni ichki tizim sifatida o'rganib, inson omilini ikkinchi darajaga surgan bo'lsa, antroposentrik yondashuvda aynan inson markaziy obyekt sifatida qaraladi. Bu o'zgarish lingvistik tadqiqotlarda "til o'zi uchun" tamoyilidan "til inson uchun" tamoyiliga o'tishni anglatadi. Natijada til dinamik, ijtimoiy va kognitiv jarayon sifatida qayta talqin qilina boshlandi.

Til va tafakkur munosabati. Inson tafakkuri til orqali shakllanadi va ifodalanadi. Til inson ongida faqat kommunikativ vosita emas, balki fikrlashni tashkil etuvchi mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Shunday qilib, til va tafakkur munosabati, lisoniy ong, nutq faoliyati hamda diskurs kabi tushunchalar lingvistikaning markaziy tadqiq obyektiga aylandi va antroposentrik tilshunoslik mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Diskurs tushunchasi. Diskurs matndan kengroq tushuncha bo'lib, u kontekst va interpretatsiyani ham qamrab oladi. Bir xil matnning turlicha talqin qilinishi tilning ijtimoiy va subyektiv tabiatini ko'rsatadi. Men diskursni faqat matn emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lgan jonli kommunikativ jarayon sifatida tushunaman.

Pragmalingvistika. Pragmatika til birliklarining real kommunikatsiyadagi ma'nosini o'rganadi. Ma'no nafaqat struktura, balki kontekst bilan belgilanadi. Masalan, "Derazani yopasizmi?" gapida savol shakli bo'lsa-da, u iltimos ma'nosini bildiradi. Mening fikrimcha, pragmatik yondashuv tilning haqiqiy ma'nosini ochib berishda juda muhimdir, chunki so'zlarning ma'nosi faqat grammatik tuzilishga emas, balki vaziyat va kontekstga ham bog'liq bo'ladi.

Antroposentrik yo'nalishlar. Antroposentrik tilshunoslik quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- kognitiv lingvistika
- psixolingvistika
- pragmalingvistika
- lingvokulturologiya
- neyrolingvistika
- diskurs tahlili

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, antroposentrik tilshunoslik paydo bo'lgach, tilga bo'lgan qarashlar tubdan o'zgardi. Til endi faqat grammatik tizim emas, balki inson bilan bog'liq murakkab kommunikativ jarayon sifatida o'rganilmoqda. Bu esa tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning shakllanishiga olib keldi. Mening nazarimda, kelajakda antroposentrik tilshunoslik sun'iy intellekt, kognitiv fanlar va raqamli kommunikatsiya sohalari bilan yanada integratsiyalashib, tilni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, antroposentrik tilshunoslik zamonaviy lingvistikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilni inson tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog'liq tizim sifatida o'rganadi. Bu yondashuv tilni nafaqat struktura, balki inson ongining ifodasi sifatida tushunishga imkon beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N. Til va tafakkur. — Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
2. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. — Toshkent: Fan, 2013.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2008.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. Rahimov B. Lingvokulturologiya asoslari. — Toshkent: Universitet, 2016.
6. Saussure F. de. Course in General Linguistics. — New York, 1959.
7. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge, 1965.
8. van Dijk T. A. Discourse and Context. — Cambridge, 2008.